

## 2024- yilning yanvar - mart oylarida Toshkent viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar - mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5 361,6 mlrd. so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 5 068,5 mlrd. so'mni (103,6 %), o'rmon xo'jaligi – 243,7 mlrd. so'mni (103,6 %), baliqchilik xo'jaligi – 49,4 mlrd. so'mni (109,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi 11,9 %ni tashkil etdi.

**5 361,6****Toshkent viloyati bo'yicha  
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi  
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**

01

**5 068,5****Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik  
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**


02

**243,7****O'rmon xo'jaligi**


03

**49,4****Baliqchilik xo'jaligi**

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati, %da**




**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari**



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2024- yilning yanvar - mart yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 94,5 %i – dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 4,5 %i – o'rmon xo'jaligi, 0,9 %i – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.


## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2024- yilning yanvar - mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Zangiota (453,8 mlrd. so'm), Yangiyo'l (439,2 mlrd. so'm) va O'rta Chirchiq (437,3 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyo'l (7,9 mlrd. so'm), Nurafshon (9,4 mlrd. so'm) va Ohangaron (13,9 mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Angren shahar (114,5 %), Piskent tumani (112,0 %), Olmaliq shahar (106,3 %) va Ohangaron tumani (104,9 %)da kuzatildi. Nurafshon (29,0 %) shahar va Oqqo'rg'on (100,8 %) tumanida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024- yilning yanvar - mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4 980,7 mlrd. so'mni yoki 2024- yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 432,7 mlrd. so'mni (103,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 4 548,0 mlrd. so'mni (103,6 %) tashkil qildi.


### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

**8,7 %**  
Dehqonchilik mahsulotlari



**91,3 %**  
Chorvachilik mahsulotlari

## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




■ Dehqonchilik mahsulotlari ■ Chorvachilik mahsulotlari

## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 82,6 % – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga 5,8 % – fermer xo'jaliklariga 11,6 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)



2024-yilning yanvar - mart oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Parkent tumani (11,3 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Bekobod shahar (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Yangiyo'l tumanida (37,7 %) qayd etildi.




## Dehqonchilik mahsulotlari


2024- yilning yanvar - mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 415,1 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 98,3 %ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 9,4 %ni tashkil qildi.

### Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 13,1 ming t. sabzavotlar (2023- yilning yanvar - martiga nisbatan - 6,1 % ga kam) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 82,1 % dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Toshkent viloyati bo'yicha  
sabzavotlar yetishtirish,  
tonna**








## Chorvachilik mahsulotlari


2024- yilning yanvar - mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 4 547,9 mlrd. soʻmni yoki 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 91,3 %ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2024- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 73,9 ming t. goʻsht (2023- yilning yanvar - martiga nisbatan 3,4 %ga koʻp), 169,5 ming t. sut (3,6 %ga koʻp), 250,4 mln. dona tuxum (8,5 %ga koʻp), yetishtirildi va 2 470,5 t. Baliq (17,6%ga kam) ovlandi.

## Go'sht (tirik vaznda)



### Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 73,9 ming t. go'sht (2023- yilning yanvar - martiga nisbatan 3,4 %ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 82,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




## Toshkent viloyati bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish, tonna




## Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalaribo'yicha  
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 169,5 ming t. sut (2023- yilning yanvar - martiga nisbatan 3,6 %ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 88,3 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha  
**sut** yetishtirish,  
tonna




## Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalaribo'yicha  
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 250,4 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar - martiga nisbatan 8,5 %ga kam) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 54,2 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




## Toshkent viloyati bo'yicha tuxum yetishtirish, ming dona




## Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalaribo'yicha  
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024- yilning yanvar - mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2 470,5 t. (2023- yilning yanvar - martiga nisbatan -36,0 %ga kam) baliq ovlandi. Ovlangan, baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 91,6 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.





Toshkent viloyati bo'yicha  
ovlangan **baliqlar**,  
tonna





## Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh





2024– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 5,1% i fermer xo'jaliklari hissasiga, 86,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 8,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 29,4 % i fermer xo'jaliklariga, 64,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiy sonidan 17,9 % i fermer xo'jaliklariga, 76,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 1,2 % i fermer xo'jaliklariga, 56,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 42,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 968 ming taga yetdi.

2024- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 35 ming taga (3,9 %) ko'paydi.

## Yirik shoxli qoramollar



**Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 87,9 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Toshkent viloyati  
bo'yicha **yirik shoxli**  
**qoramollarning** umumiy  
bosh soni, ming bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 396 ming taga yetdi.


2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni – 10 ming taga (2,7 %) ko'paydi.

## Sigirlar


**Soni, ming bosh**



**O'sish sur'ati**




**Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 90,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati  
bo'yicha **sigirlarning**  
umumiy bosh soni,  
ming bosh




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 1 051 ming taga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 22 ming taga (2,2 %) ko'paydi.

## Qo'y va echkilar



**Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami qo'y va echkilarning 64,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



## Toshkent viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh








2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 54 816 taga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni (- 409) taga (-0,7 % ga) kamaydi.

## Otlar



**Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 76,4 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.





**Toshkent viloyati  
bo'yicha otlarning  
umumiy bosh soni, bosh**




2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 16 648 ming taga yetdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni – 1 717 ming taga (11,5 %) ko'paydi.

## Parrandalar



**Bosh sonining  
xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2024- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 56,1 %i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



## Toshkent viloyati bo'yicha parrandalar ning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya  
statistikasi bo'limi

• 71-202-86-69  
• 99-444-34-03